



## XALQ MUSIQA IJODI NAMUNALARINI DARS JARAYONIDA O'RGANISH ORQALIY MILLIY G'URUR VA IFTIXOR TUSHUNCHALARINI SHAKLLANTIRISH

*Odilova Mushtariy*

*Andijon davlat pedagogika instituti talabasi*

**Annotatsiya.** Maqolada, mamlakatning asl san'ati va musiqasi bilan tanishish, uning tarixiy ahamiyati, va shu ijodiyatning o'rganish jarayonlarining milliy g'urur va iftixor tushunchalarini qanday shakllantirishi ko'rsatilishi mumkin. Bu orqali, o'quvchilarga xalq musiqa ijodini o'rganish, undagi ifodaviy xususiyatlar va milliy xarakteristikalar haqida o'rganish, mamlakatning madaniy hayotining qanday nuqtai nazarlarini ifodalash, shuningdek, o'zaro munosabatlar va hamkorliklarni rivojlantirish imkoniyatlarini ko'rsatib berilgan.

**Kalit so'zlar:** Xalq og'zaki ijodi, Foklor, dostonlar, xalq qo'shiqlari

Xalq og'zaki ijodi, ya'ni musiqiy va adabiy san'atning eng yaxshi namunasi xalq qo'shiqlaridir. Xalq og'zaki ijodining g'oyaviy boyligi va janr xilma-xilligi juda katta ma'naviy va badiiy qadriyat hisoblanadi. Unda xalq tarixi, uning turmushi aks etadi. Eng yaxshi insoniy ma'naviy-axloqiy fazilatlar odamlar baxti yo'lidagi haqiqiy jasorat, do'stlikka sadoqat, mehnatga muhabbat va shijoati kuylanadi.

O'zbek xalq og'zaki ijodi janr jihatidan keng qamrovli bo'lib, u xalqimizning dunyoqarashi, badiiy zavqi, mehri va qahr-g'azabi, orzu istaklari va ijodiy salohiyatini aks ettiruvchi bir oynadir.

Xalq og'zaki ijodi namunalari katta ta'lim-tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lib, musiqa rivojlanishining bitmas-tuganmas manbai hisoblanadi.

«Folklor» — atamasi ingliz tili leksikasiga mansub bo'lib, u ikki so'z, ya'ni folk (folk) — xalq va lore (lore) — donolik so'zlarining birikmasidan tashkil to'gan va u «xalq donishmandligi» degan ma'noni bildiradi. U birinchi marta 1846 yilda Vilyam Toms tomonidan ishlatilgan va shundan boshlab iste'molga kiritildi.

Folklor — xalq ijodiyotining barcha sohalarini o'z ichiga oladi va shu qatori xalq musiqasi ham ayrim hollarda «Musiqahli» deb ham yuritiladi. Xalq qo'shiqlari og'izdan-og'izga, avloddan-avlodga o'tib todiriladi va sayqal topadi. Xalq og'zaki ijodining asosiy xususiyati shundaki, u ko'pchilik tomonidan yaratiladi va ijro etiladi.

Xalq og'zaki ijodiyoti — xususan folklor qo'shiqlarining o'ziga xos muhim xususiyatlaridan biri ilg'or g'oyaviylikdir. Xalq har bir sohada o'z istaklarini tezroq amalga oshirishni orzu qilib yashaydi va shu orzularni amalga oshirish yo'lida qilayotgan sa'yi-harakatlarini turli tarzda ifodalashga intiladi. Shu tufayli u folklorga murojaat qiladi, o'zining butun dardu hasratini to'kib soladi. Shu tariqa xalq qo'shiqlari vujudga keladi.



Demak, xalq qo'shiqlarini asosan xalq yaratadi. Shuning uchun ham xalq qo'shiqlarining tili — xalqning jonli so'zlashuv tili hisoblanadi va so'zlarning turli shevalarda, turli dialektlarda talaffuz qilinishi, arxaik ifodalardan foydalanilishi tabiiy bir holdir.

Xalq qo'shiqlari har doim yuksak badiiyligi va taosirchanligi bilan ajralib turadi. Xalq qo'shiqlari ramziy obrazlar, sifatlash mahorati, erkalatish, mubolag'a va boshqa noanaviy formulalarning ko'p ishlatilishi bilan xarakterlanadi.

Xalq qo'shiqlari anonim (grekcha noma'lum) kishilar tomonidan yaratilgan bo'lib, u og'izdan-og'izga, avloddan-avlodga o'tish jarayonida ommaviy ijrochilik tusini olgan.

Xalq og'zaki ijodiyoti namunasi sifatida xalq qo'shiqlari manbai qadim-qadimlarga daxldor bo'lganligi uchun, ular nota yozuvlari, hatto adabiy yozuvning namunalari mavjud bo'lmagan bir davrlardan boshlangan va ular ustoz-shogird an'analari asosida bizgacha etib kelgan. Xalq qo'shiqlarining abadiy saqlanib qolishida xalq xotirasi asosiy ahamiyat kasb etadi.

Har bir narsa xalqning tajribasi, dididan o'tgandan keyingina an'anaga aylanadi. Xalq qo'shiqlarining aksariyat qismi xalq an'analari bilan bevosita bog'liq holda yaratilgan. Har bir davr kishilari o'z badiiy zavqi, ma'naviy estetik didi va tafakkuri bilan bu asriy an'analarni boyitib borgan hamda unga o'z hissasini qo'shgan.

Xalq ijodkorligi namunalari sifatida qadimdan aytib kelingan xalq qo'shiqlari turli hududlarda turlicha kuylab kelingan. Bu xalq asarlarining xilma-xil nusxalarda takrorlanishiga olib kelgan, bu ko'p variantlilikka xalq qo'shiqlari rivojining o'ziga xos taraqqiyot manbai deb qarash joizdir. Xalq qo'shiqlarining ommaviyligi, an'anaviyligi shu bilan izohlanadi.

Xalq ohanglari va qo'shiqlari bastakorlar ijodiga ham o'z ta'sirini o'tkazib kelgan. Uzoq o'tmishdan bastakorlar ijodida ustuvor o'rin egallab kelgan VII asr musiqachilaridan biri Markaziy Osiyolik mashhur bastakor Borbad Marvaziy xalq qo'shiqlari va kuylarini mukammal egallagan hamda u saroyda musiqachilar tarbiyasiga ham alohida eotibor bergan.

50-yillardan boshlab san'atshunoslik fanlari doktori F.M.Karomatov rahbarligida O'zbekiston viloyatlari sarhadlariga keng miqyosda musiqa eks'editsiyalari uyushtirila boshlandi. Hozirgi kunga qadar davom etib kelayotgan ushbu ijodiy jarayonda qimmatli manbalar to'plangan bo'lib, ular asosida F.M.Karomatov «O'zbek do'mbira musiqasi», «O'zbek xalq qo'shiqlari» va hozirgi ikki kitobdan iborat «O'zbek xalq musiqa merosi» (1978, 1985) kitoblarini nashr ettirdi.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach, umumiy o'rta tal'im maktablarining barcha o'quv fanlari bo'yicha darsliklar yaratildi. Shu jumladan, 1-7-sinflari uchun musiqa darsliklari ham ishlab chiqildi. Bular I-sinf musiqa alifbosi, 2-3- va 4-sinflar uchun «Musiqqa» darsliklari. 5-, 6- va 7-sinflar uchun «Musiqqa» darsliklari. Bu darsliklardagi o'quv materiallari o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy, ruhiy kamol toptirishga xizmat qiladi.



Shu o'rinda ta'kidlash joizki, Qozog'iston Res'ublikasi tomonidan ham barcha sinflar uchun yangi «musiqa» darsliklari ishlab chiqilgan va ular, birinchi navbatda, xalq eposlari hamda boy xalq musiqiy an'alariga tayanganligini kuzatdik.

Bizning nazarimizda, Respublikamiz maktablari uchun chop etilgan musiqa darsliklari muayyan bir tizim asosida yaratilgan bo'lsa-da, biroq mukammal, xalq musiqiy an'alariga tayangan, betakror bir tizimga solinmagan. Xususan, xalq qahramoni Al'omishning ming yilligi o'tkazilishi arafasida O'zbekiston teleradio kom'aniyasi tomonidan baxshilar ijrosidagi «Alpomish» dostoni to'liq matni magnit tasma-siga yozib olindi. Xalq og'zaki ijodiyoti, folklorning salmoqli qismini tashkil etuvchi yana o'nlab dostonlar baxshilarimiz tomonidan kuylanib kelmoqda. Lekin ularning birortasi ham notalashtirilib, musiqa shinavandalariga, o'quvchi va talabalarga etkazilgan emas. Xalqimizni asrlar davomida maftun qilib kelgan bu asarlar: «Go'ro'g'li», «Kuntug'mish», «Alpomish», «Oshiq G'arib va Shohsanam» kabi o'nlab dostonlar yosh avlodni tarbiyalashning bosh mezoni, ma'naviy-axloqiy tarbiyaning asl sarchashmasiga aylanmog'i lozim.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida amalga oshirilayotgan «Musiqa darslarini» mohiyatan o'rganish natijasida asosiy urg'u o'zbek xalq ijodiyotiga berilishi zarur degan xulosaga keldik. Chunki xalqimizning milliy-kuy qo'shiqlari zamirida yoshlarni mardlikka, halollikka va 'oklikka chorlovchi hamda ma'naviy qadriyatlarga hurmat hissini uyg'otuvchi oliyanob tuyg'ular mujassam etilgandir. Albatta, bu kabi ijodiy va masouliyatli vazifalarni amalga oshirish uchun, eng avvalo, xalq musiqa ijodini yaxshi bilimdoni bo'lgan malakali mutaxassislar bo'lmog'i lozim. Musiqa darslarining samarador bo'lishi ko'' jihatdan o'qituvchining bilim saviyasi, milliy dunyoqarashi, xalq qo'shiq va kuylarini nechog'lik e'zozlashi, ularni badiiy etuk tarzda ijro eta olishi va umuman, kasb mahorati va madaniyatiga bog'liqdir.

Musiqa darslarini alohida maxsus jihozlangan «Musiqa» xonasida o'tish maqsadga muvofiqdir. Shinam musiqa xonasi, yaxshi sozlangan pianino, milliy asboblardan — doira, rubob, dutor, chang, g'ijjak o'quvchilarning musiqa darslariga bo'lgan qiziqishini orttiradi. Musiqa o'qituvchisi maxsus maolumatga ega bo'lsa, milliy kuy-qo'shiqlarni yaxshi ijro eta olsa, darslarni qiziqarli ko'rgazmali vositalar yordamida o'tkazsa, texnika vositalaridan unumli foydalana olsa, u o'quvchilarning hurmatiga sazovor bo'ladi.

Barkamol avlodni tarbiyalash mustaqqil O'zbekistonimiz oldida turgan eng muhim vazifalaridan biri bo'lib qoldi. Bu masala «ta'lim to'g'risida»gi Qonunda ham,»Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» da ham, yurtboshimizning majlislarda, sessiyalarda qilgan maoruzalarida ham alohida taokidlanmoqda. Demak,barkamol avlod tarbiyasida badiiy adabiyot, ayniqsa,bolalar adabiyoti katta rol o'ynaydi. Bolalar adabiyoti so'z sanoati va tarbiya vositasidir. Kichkintoylar uchun yoziladigan har qanday badiiy asar ularni yosh xususiyatlariga, saviyalariga mos, yosh kitobxonlar qalbida o'y fikrlar uyg'otadigan, yorqin obrazlarga boy, yuksak



g'oyalarga, ulkan va 'orloq ishlarga ilhomlantiradigan bo'lishi zarur. Eng muhimi mavzular tushunarli, sodda va qiziqarli tilda ifodalanishi kerak.

Bolalar adabiyoti yoshlarni imon-e'tiqodli kishilar qilib va vatanga muhabbat ruhida tarbiyalashda davrimizning qudratli qurolidir. Bolalar yozuvchilarining eng yaxshi kitoblarda yosh avlodning hayotga to'g'ri munosabatda bo'lishga o'rgatadi, ona-diyorimizga, mehnatga muhabbat, zamonamizga sadoqat ruhida tarbiyalaydi, ular yurtimizning munosib farzandlari bo'lishga chaqiradi. Bolalar kitobxonligini 'edagogik-'sixologik xususiyatlariga ko'ra quyidagicha guruxga ajratish mumkin:

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar kitobxonligi(2 yoshdan 7 yoshgacha.)  
Maktab yoshidagi kichik bolalar kitobxonligi (7 yoshdan 12 yoshgacha.)  
O'rta va katta maktab yoshidagi bolalar kitobxonligi(13-14 yoshdan 15-17 yoshgacha.)

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar kitobxonligi. Bu davr bolalar kitobxonligi asosan ota-onalar va tarbiyachilar tomonidan amalga oshiriladi. Hali o'qish, yozish-chizishni bilmaydigan maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar dunyo sirlaridan boxabar bo'ladilar. Shunga qaramay, ular o'z atroflarini qurshagan olamni tezroq bilib olishga, uni o'rganishga intiladilar. Bunga ota-onalar, bog'chalarda esa tarbiyachilar bolalarga yaqindan yordam berishi, ya'ni ularga badiiy asarlardan parchalar o'qib berishlari lozim.

Maktab yoshidagi kichik bolalar kitobxonligi. Bu yoshdagi bolalar kitobxonligi avvalgidan biroz farq qiladi. Bu farq bolalarning yoshi va bilim saviyasiga bog'liq. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar asosan tarbiyachilari, ota-onalari yordamida badiiy asarlar bilan tanishsalar, boshlang'ich sinf o'quvchilari esa bu ishni mustaqil bajaradilar. Mustaqillik ularga ishonch va zavq bag'ishlaydi. Bu yoshdagi bolalarni tevarak-atrofdagi turli voqea hodisalar nihoyatda qiziqtiradi. Ularni qiziqtirgan savollarga badiiy asarlarda mufassal javob beriladi.

O'rta va katta yoshdagi bolalar kitobxonligi. Bu yoshdagi bolalar o'zlari mustaqil ravishda kitob o'qibgina qolmay, balki o'qigan kitoblaridagi qahramonlarning hatti-harakatlarini baholashga o'rganadilar, zarurat bo'lsa ular ko'rsatgan mardlik va jasoratlarini takrorlashga harakat qiladilar. Ko'rib o'tganimizdek, bolalar va yoshlar adabiyoti o'ziga xos xususiyatlari va eotibori bilan kattalar adabiyotidan farq qiladi. Zotan, bolalar yozuvchisi o'z asarlarida dunyo voqealarini bola ko'zi bilan ko'rgan holda tasvirlaydi. Hayotni keng, qiziqarli tasvirlash bilan birga bolani olg'a intilishga chaqiradi, hayotni chuqur anglash va uni sevishda unga yordam beradi.

Folklor hamma zamonlarda ham ijod sarchashmasi hisoblanib keladi. Zero, insoniyat ilk ibtidoiy jamoa tuzumi davridan boshlaboq alla, qo'shiqlar, afsona, ertak va dostonlarda o'zining Yuksak orzu-umidlari, zavq-shavqi-yu, kurashlarini ifodalagan. Xalq og'zaki ijodi o'zining tematik rang- barangligi, yuksak o'timistik g'oyalar bilan yo'g'rilganligi, xalq turmushi, urinishi, mehnati yuksak ideallarga



maskanligi, xullas xalq hayotining barcha tamonlar bilan uzviy bog'liqligi bilan ham g'oyatda eotiborlidir.

Bolalar folklori ko'pincha kattalar tomonidan ijod qilinadi.(alla), bao'zi hollarda bolalar o'z o'yinchoqlari asosida o'zlari ham alla, qo'shiq va ovunmachoqlar to'qiydilar. Ularning hammasi bir bo'lib faqat yaxshi tarbiyani targ'ib qiladi. Zotan, bolalar xalq og'zaki ijodining pedagogika bilan bog'lanishi ana shu alladanoq boshlanadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Ma'naviy yuksalish yo'lida. T.: O'zbekistan 1998 y. 480 b.
2. "O'zbek xalq og'zaki ijodi" T., 1990 yil.
3. O'zbekiston Res'ublikasi konstitutsiyasi. T.: O'zbekiston 1992 y. 48 b.
4. O'zbekiston res'ublikasi ta'lim to'g'risidagi qonun. «Maorifat» 1997 y.
5. J.Tulenov. Qadriyatlar falsafasi.
6. M. Murodova. Folklor va etnografiya. Toshkent - 2006
7. Ibrohimov A.O. "O'zbek xalq musiqa ijodi" (metodik tavsiyalar) I qism., 1994 yil.
8. Hasanboeva. Pedagogika tarixidan xrestomatiya. T. O'qituvchi. 1992 y. 208 b.
9. Hasanboeva, J. Hasanboev, H.Homidov. Pedagogika tarixi: O'quv qo'llanma. T. O'qituvchi. 1997 y. 248 b.
10. Safarov, M. Maxmudov. Oila ma'naviyati. T. «Ma'naviyat» 1998 y. 160 b.